O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI XORAZM VILOYATI XALQ DEPUTATLARI XIVA SHAHAR KENGASHI

Q A R O R I

220900, Xorazm viloyati, Xiva shahri, N.Kubro ko‘chasi, 27-uy, telefon (62)377-50-58, faks (62)377-50-54

2023 - yil 29 - dekabr VI-95-127-12-217-K/23 Xiva shahar hokimligi

Xiva shahrining 2024-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunning 6-24-moddalari, Budjet kodeksining 99-moddasi, xalq deputatlari Xorazm viloyati Kengashining 2023-yil 28-dekabrdagi “Xorazm viloyatining 2024-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-76-190-12-0-K/23-sonli qaroriga muvofiq hamda Xorazm viloyati iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2023-yil 26-dekabrdagi 01-01-38/1680-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari Xiva shahar Kengashi,

Qaror qiladi:

1.Xalq deputatlari Xorazm viloyati Kengashining 2023-yil 28-dekabrdagi “Xorazm viloyatining 2024-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2.Xalq deputatlari Xorazm viloyati Kengashining 2023-yil 28-dekabrdagi “Xorazm viloyatining 2024-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qaroriga*(keyingi o‘rinlarda qaror deb ataladi)*muvofiq, Xiva shahar mahalliy budjetining 2024-yil uchun daromadlari 71752,5 mln.so‘m, xarajatlari 107 524,2 mln.so‘m prognoz qilinganligi hamda respublika budjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar 35 771,2 mln.so‘m, shundan, aksiz solig‘i tushumlari hisobidan ajratiladigan mablag‘lar 16 724,2 mln. so‘m miqdorida tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3.2024-yil uchun Xiva shahar mahalliy budjeti daromadlari prognozi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4.2024-yil uchun Xiva shahar mahalliy budjetidan budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5.2024-yil uchun Xiva shahar mahalliy budjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar normativlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6.2024-yil uchun Xiva shahar mahalliy budjeti zaxira jamg‘armasi miqdori 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

7.2024-yil uchun Xiva shahar mahalliy budjeti shaxsiy g‘azna hisob varaqlarida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

8.2024-yil uchun viloyat budjetidan shahar mahalliy budjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi

budjetlararo transfertlar miqdorlari 6-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorini tuman (shahar) mahalliy budjetlari daromadlari prognozi ijrosidan qat'iy nazar kamaytirishga yo'l qo'yilmasligi qonunda belgilab qo'yilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

9.Yuridik shaxslar bo'yicha qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer maydonlari uchun hududlar kesimida mutlaq miqdorda 1 gektarga belgilangan bazaviy soliq stavkalariga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar 7-ilovaga muvofiq belgilansin.

10.Jismoniy shaxslar bo'yicha (dehqon xo'jaligini yuritish uchun berilgan va qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardan tashqari) yer maydonlari uchun hududlar kesimida mutlaq miqdoriga 1 kv.metr uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar 8-ilovaga muvofiq belgilansin.

11.O'zbekiston Respublikasining mazkur qonuni bilan 2024-yilda xalq deputatlari Kengashlarining mahalliy budjetlarni boshqarishda, xususan mahalliy budjet xarajatlarini hududiy budjet mablag'lari taqsimlovchilari kesimida tasdiqlash va ularning Kengash oldidagi hisobdorligini belgilash bo'yicha vakolatlari kengaytirilganligi inobatga olinsin.

Shuningdek, xalq deputatlari Xorazm viloyati Kengashining 2023yil 28-dekabrdagi "Xorazm viloyatining 2024-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to'g'risida"gi VI-76-190-12-0-K/23-sonli qaroriga muvofiq 2024-yilda quyidagi soliq turlari:

a) mahalliy budjetga to'liq hajmda o'tkaziladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i;

jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulkni ijaraga berishdan olinadigan yillik daromadi to'g'risidagi deklaratsiyaga asosan to'laydigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar to'laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan to'lanadigan soliq mustasno;

qurilish materiallari bo'yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq;

yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i;

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq;

benzinni, dizel yoqilg'isini va gazni yakuniy iste'molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig'i;

aylanmadan olinadigan soliq;

davlat aktivlarini foydalanishga (ijaraga) berishdan qonunchilikda belgilangan normativlar bo'yicha olinadigan daromadlar.

12.Xiva shahar hokimining birinchi o'rinbosari (X.Babayev), iqtisodiyot va moliya bo'limi (D.Ishchanov), soliq inspeksiyasi (X.Babajonov)mas'ul tashkilotlar bilan birgalikda:

tegishli budjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon hamda kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

mahalliy budjet prognoz ko'rsatkichlarini o'z vaqtida va samarali bajarish;.

budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish;

budjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish;

tegishli mahalliy budjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minlash;

budjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin.

13.Soliq inspeksiyasi (X.Babajonov) O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida budjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini kuchaytirishga;

yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazgan holda, soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlash hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rishga;

aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazishga;

bunda, mazkur yo‘nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqarolarga xarid chekini talab qilib olishni targ‘ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e’tibor qaratsin.

Xatlov ishlarini samarali tashkil etish orqali yer va mol-mulk solig‘ining soliq bazasini oshirish vazifasi yuklatilsin.

14.Xiva shahar iqtisodiyot va moliya bo‘limi (D.Ishchanov):

budjet intizomiga qat’iy rioya etilishi ustidan doimiy monitoring ishlarini kuchaytirsin;

budjet intizomini buzish holatlari bo‘yicha har oy yakuni bilan Kengashga axborot kiritib borsin;

o‘tkazilgan nazorat tadbirlari yakuni bo‘yicha kamomad va noqonuniy o‘zlashtirishga yo‘l qo‘ygan soha rahbarlarining hisobotini har chorakda eshitib borsin.

15.Kengashning mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi:

mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risidagi hokimlik tomonidan taqdim etilgan takliflar asosida budjet qonunchiligiga to‘liq rioya etilgan holda Kengash qaror loyihasini ishlab chiqilishiga;

Kengash qarori asosida mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag‘larni samarali va maqsadli foydalanishi ustidan nazorat o‘rnatishga va natijalari bo‘yicha tavsiyalar berishga hamda monitoring qilishga;

mahalliy budjet xarajatlarining qonunchilikda belgilangan qismini jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilishida ishtirok etadi va ushbu mablag‘larning maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni amalga oshirishga mas’ul etib belgilansin.

16.Xiva shahar hokimligi shahar mahalliy budjeti jami xarajatlarining 5 foizi hamda shakllangan qo‘shimcha mablag‘larning kamida 30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga yo‘naltirsin.

Bunda, shahar xalq deputatlari, shahar hokimligining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari, Xiva shahar hokimligi huzuridagi jamoatchilik Kengashlari hamda hokim yordamchilari budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash maqsadida aholiga keng
targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga mas’ul etib belgilansin.

17.Xiva shahar hokimining birinchi o‘rinbosari (X.Babayev) tegishli muassasa va tashkilotlar bilan birgalikda:

mahalliy budjet daromad va xarajatlarining prognoz ko‘rsatkichlari bajarilishi hamda soliq bazasini kengaytirish yuzasidan ko‘rilgan chora-tadbirlar;

ajratilgan budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanishi yuzasidan erishilgan natijalar bo‘yicha Kengashga har chorakda kamida bir marotaba hisobot kiritib borsin.

18.Shahar hokimligi qonunda belgilangan ayrim soliqlar va to‘lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritilishini ta’minlasin.

19.Mazkur qaror “Xiva tongi” gazetasida rasmiy e’lon qilinsin hamda Xiva shahar hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

20.Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

21.Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari shahar Kengashining mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (O.Kuziyev) zimmasiga yuklansin.

Xalq deputatlari shahar Kengashi raisi **T.Davletov**

Xalq deputatlari Xiva shahar
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-95-127-12-217-K/23-son qaroriga
1-ilova

Xorazm viloyati mahalliy budjetining 2024-yildagi asosiy ko‘rsatkichlari

ming so‘m

№	Daromad turlari	Xiva shahar
1	Foyda solig‘i	
2	Aylanmadan olinadigan soliq	9 717 000
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	25 403 500
4	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	1 080 000
5	Yakuniy iste’molchilarga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i	13 666 000
6	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	4 868 000
7	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	6 682 000
8	Yuridik shaxslar yer solig‘i	3 611 000
9	Jismoniy shaxslar yer solig‘i	6 238 000
10	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	3 000
11	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	92 000
12	Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar va davlat korxonalari foydasidan ajratmalar	
13	Davlat boji	
14	Yig‘imlar	
15	Jarimalar	
16	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	392 000
17	Davlat mulki obyektlarini sotishdan tushumlar	
JAMI		**71 752 500**
1	**Tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar**	**35 771 702**
	shundan, aksiz solig‘i tushumlari hisobidan ajratiladigan mablag‘lar	16 724 175

Xalq deputatlari Xiva shahar Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-95-127-12-217-K/23-son qaroriga
2-ilova

2024-yil uchun Xiva shahar budjetidan birinchi darajali budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan ajratmalarining cheklangan miqdorlari

ming so‘mda

№	Ko‘rsatkichlar	miqdori
Xarajatlar miqdori, Jami		**107 524 202,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**107 524 202,0**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
	Tuman va shaxar mahalliy budjetlariga transfertlar	
1	**Umumiy ta’limi**	**11 388 097,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	11 388 097,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
2	**Maktabgacha ta’lim**	**11 945 153,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	11 945 153,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
3	**Sog‘liqni saqlash**	**29 897 668,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	29 897 668,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	

4	**Madaniyat**	**1 348 008,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 348 008,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
5	**Sport**	**4 575 719,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	4 575 719,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
6	**Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish**	**1 372 044,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 372 044,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
7	**Obodonlashtirish boshqarmasi**	**14 331 767,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	14 331 767,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
8	**Ichki xo‘jalik avtomobil yo‘llarni ta’mirlash xarajatlari**	**4 000 000,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	4 000 000,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
9	**Davlat boshqaruv organlarini saqlash**	**15 607 248,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	15 607 248,0

	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
10	**Ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarga «dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi»**	**9 200,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	9 200,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
11	**Ijtimoiy ko‘nikma markazlari**	**94 122,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	94 122,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
12	**Zahira jamg‘armasi**	**954 264,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	954 264,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
13	**Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi**	**11 143 512,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	11 143 512,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
14	**"Mahalla budjeti" jamg‘armasi mablag‘lari**	**857 400,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	857 400,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	

Xalq deputatlari Xiva shahar Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-95-127-12-217-K/23-son qaroriga
3-ilova

Umumdavlat soliqlaridan Xiva shahar mahalliy budjetlariga ajratmalar me’yori

Foiz hisobida

T/R	Shahar	Aylanmadan olinadigan soliq	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	Jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulkni ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	Benzinni, dizel yoqilg‘isini va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno	Davlat aktivlarini foydalanishga (ijaraga) berishdan qonunchilikda belgilangan normativlar bo‘yicha olingan daromadlar
1	Xiva shahri	100	50	100	100	100	100	100	100	100	100	100

Xalq deputatlari Xiva shahar
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-95-127-12-217-K/23-son qaroriga
4-ilova

Xiva shahar mahalliy budjetining zahira jamg‘armasi miqdori

ming so‘mda

T/r	**Hudud nomi**	**Zahira jamg‘armalari miqdori**
1	Xiva shaxar	954 264

Xalq deputatlari Xiva shahar
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-95-127-12-217-K/23-son qaroriga
5-ilova

Xiva shahar mahalliy budjetlarida yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘lar miqdori

ming so‘mda

T/r	**Hudud nomi**	**Miqdor**
1	Xiva shahar	**606 000**

Xalq deputatlari Xiva shahar
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-95-127-12-217-K/23-son qaroriga
6-ilova

Shahar va tumanlar mahalliy budjetlarining 2024-yilgi yuqori budjetdan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorlari

ming so‘mda

T/r	**Shahar va tumanlar**	**Tartibga soluvchi transfert miqdori**	**shundan, aksiz solig‘i tushumlari xisobidan ajratilgan mablaglari**
1	**Xiva shahri**	**35 771,2**	**16 724 175,0**

Xalq deputatlari Xiva shahar
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-95-127-12-217-K/23-son qaroriga
7-ilova

Xiva shaharda 2024 yil uchun Yuridik shaxslarning yer solig‘i bazaviy stavkalari (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari)

T/r	Hudud nomi	Koeffitsiyent *(0,7 dan 3,0 gacha)*	2024-yil uchun Yuridik shaxslar yer solig‘i stavkasi (*1 gektar uchun mln so‘mda)*
1	Shixlar MFY	1,14	43 502 400
2	Kaptarxona MFY	1,14	43 502 400
3	Ichan qal’a MFY	1,14	43 502 400
4	Qibla tozabog‘ MFY	1,14	43 502 400
5	Kalta minor MFY	1,14	43 502 400
6	Yangi turmush MFY	1,14	43 502 400
7	Mevaston MFY	1,14	43 502 400
8	Kumyaska MFY	1,14	43 502 400
9	Lolazor MFY	1,14	43 502 400
10	Qiyot MFY	1,14	43 502 400
11	Yangi xayot MFY	1,14	43 502 400
12	Gulirayxon MFY	1,14	43 502 400
13	Do‘stlik MFY	1,14	43 502 400
14	Binokor MFY	1,14	43 502 400
15	Gulshan-2 MFY	1,14	43 502 400
16	Guliston MFY	1,14	43 502 400
17	Tozabog‘ MFY	1,14	43 502 400
18	Gazchi MFY	1,14	43 502 400
19	Angarik MFY	1,14	43 502 400
20	Gilamchi MFY	1,14	43 502 400

21	**Sangar MFY**	1,14	43 502 400

Xalq deputatlari Xiva shahar
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-95-127-12-217-K/23-son qaroriga
8-ilova

Xiva shaharda 2024-yil uchun Jismoniy shaxslarning yer solig‘i bazaviy stavkalari (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari)

T/r	Hudud nomi	Koeffitsiyent *(0,7 dan 3,0 gacha)*	2024-yil uchun Jismoniy shaxslar yer solig‘i stavkasi *(1 kv metr uchun so‘mda)*
1	Shixlar MFY	1,35	406,08
2	Kaptarxona MFY	1,35	406,08
3	Ichan qal’a MFY	1,35	406,08
4	Qibla tozabog‘ MFY	1,35	406,08
5	Kalta minor MFY	1,35	406,08
6	Yangi turmush MFY	1,35	406,08
7	Mevaston MFY	1,35	406,08
8	Kumyaska MFY	1,35	406,08
9	Lolazor MFY	1,35	406,08
10	Qiyot MFY	1,35	406,08
11	Yangi xayot MFY	1,35	406,08
12	Gulirayxon MFY	1,35	406,08
13	Do‘stlik MFY	1,35	406,08
14	Binokor MFY	1,35	406,08
15	Gulshan-2 MFY	1,35	406,08
16	Guliston MFY	1,35	406,08
17	Tozabog‘ MFY	1,35	406,08
18	Gazchi MFY	1,35	406,08
19	Angarik MFY	1,35	406,08
20	Gilamchi MFY	1,35	406,08
21	Sangar MFY	1,35	406,08